

O'ZBEKISTONDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK MUNOSABATLARI

Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston qanday davlatlar sirasiga kirishi, diniy yoki dunyoviy davlat ekanligi. Shu mavzuga oid qonunlar, yangiliklar, taqqoslashlar keltirilgan va aholisini ko'p qismi qaysi dinga e'tiqod qilishi va diniy tashkilotlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Vijdon, fuqoro, din, dunyo, kofessiya, e'tiqod, millat, xalq, demokratiya, huquq, konstitutsiya.*

Аннотация. *В этой статье к каким странам относится Узбекистан, религиозное это или светское государство. Представлены законы, новости, сравнения по этой теме, а также представлена информация о религии и религиозных организациях большинства населения.*

Ключевые слова. *Совесть, гражданин, религия, мир, конфессия, вера, нация, народ, демократия, закон, конституция.*

Abstract. *In this article, what kind of countries does Uzbekistan belong to, whether it is a religious or a secular state. Laws, news, comparisons on this topic are presented, and information about the religion and religious organizations of the majority of the population is also presented.*

Keywords. *Conscience, citizen, religion, world, confession, belief, nation, people, democracy, law, constitution.*

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi». Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab masala bo'lib kelgan. Binobarin, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhim. Bundan tashqari «vijdon erkinligi» tushunchasini ilmiy talqin qilishda milliy, mafkuraviy va madaniy omillarni ham albatta nazarda tutish kerak. » .

Mamlakatimiz xududida yashayotgan har bir fuqoro va har qaysi diniy konfessiya a'zolari tengligiga asosiy e'tibor qaratildi. Shuningdek, yurtimizda 130dan ortiq milla va elat istiqomat qilmoqda. Ularning hammasi bir dinda bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston juda bag'rikeng o'lka va xalqi esa mehmondo'st hisoblanadi. Bu diyorda yashayotgan barcha odamlar dinidan, irqidan, kelib chiqishidan qat'iynazar tengdir. Mana tenglikni ta'minlash uchun har hattoki turli xil qonunlarni ham ishlab chiqqan. Masalan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan :

O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Yuqorida aytilgandek, O'zbekiston barcha xalqlarni birdek qabul qiladi. An'analari va urf-odatlari hurmat qiladi va sharoit yaratib beradi.

Shu qatorda diniy yoki dunyoviy davlat qanday bo'lishi to'grisida savol tug'ilishi tabiiy holdir. Eng avval dunyoviy davlat atamasiga e'tibor qaratamiz. Dunyoviy davlat bu din davlatdan ajratilgan davlat. Binobarin, din dunyoviy davlat ishiga, siyosatiga aralashmaydi. Ayni paytda davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi. Ularning davlat qonunlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Dunyoviy davlat – bu o'z fuqarolari uchun vijdon erkinligini e'lon qiladigan davlat. Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki O'zbekiston ham dunyoviy davlat hisoblanadi. Diniy davlat esa faqatgina 1dinga e'tiqod qiluvchilarning soni nihoyatda ko'p bo'lgan va faqat bir dinni qo'llab quvvatlaydigan mamlakat diniy davlat hisoblanadi.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'toqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u ma'lum ijtimoiy vaziyatda albatta namoyon bo'ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, ob'ektiv va sub'ektiv omillarsiz tasavvur qilish qiyin. Bundan tashqari «vijdon erkinligi» tushunchasini ilmiy talqin qilishda milliy, mafkuraviy va madaniy omillarni ham albatta nazarda tutish kerak. Mamlakatimiz xududida yashayotgan har bir fuqoro va har qaysi diniy konfessiya a'zolari tengligiga asosiy e'tibor qaratildi. Dunyoviy davlat diyilganda, din davlatdan ajratilganligi nazarda tutiladi, ammo din xalqdan ajratilgan emas. Shu bilan birga barcha dinlarga bag'rikenglik ruhida yondashuv zarurdir. Zero, kishilik jamiyati uzoq davrlar davomida shakllanib kelgan. Ko'plab mamlakatlarda turli diniy e'tiqodga mansub kishilar ahil, ittifoq bo'lib yashaganlar. Hususan, 1004 – 1005 yillarda Xorazmda yaratilgan Ma'mun akademiyasida faoliyat olib borgan allomalar ham turli din vakillari edilar. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga bir asosiy jumlaning kiritishni lozim tutdim. O'zbekistonning asosiy aholisi islom diniga e'tiqod qilishadi. Islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karimning oltita surasida ham bu mazmundagi oyatlarga duch kelamiz. Misol tariqasida ayrimlari xususida tuxtalib o'taylik:

“Dinga zo'rlab (kiritish) yo'qdir. (Zero) haq yo'l zalolatdan ajrab bo'ldi. Bas, Kim shaytondan yuz o'girib, Allohga iymon keltirsa, u hech ajrab ketmaydigan mustahkam halqani ushlabdi. Ollah eshituvchi, bilguvchidir”.

Respublikamizda endigina hurlik, amaldagi mustaqillik kunlariga erishuv reallikka aylanishi aniq bo'lib qolgan fursatda dindorlar maqomiga jiddiy e'tibor qaratilgan edi. Xususan, 1991 yili “Ramazon xayiti” dam olish kuni, deb e'lon qilindi. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Jumhuriyati Prezidenti I. Karimovning 20 iyun kuni e'lon qilingan farmonidagi har bir jumla kishi e'tiborini tortib, har bir

musulmonda chuqur bir qoniqish va ko'tarinki ruhni namoyon qiladi. Farmon matnini to'liq keltiramiz: "Musulmonlarning ko'plab istak va xohishlarini qondirish hamda O'rta Osiyo musulmonlari Diniy Boshqarmasining murojaatini e'tiborga olib, fuqarolar hamjihatligi va mehr-oqibatini yuksaltirish maqsadida "Qurbon xayiti" ("Iyd al-adha")ni bu yil 22 iyun' kuni va keyingi yillarda esa "Qurbon hayiti"ning birinchi kuni dam olish kuni deb tayinlansin.

Bu vaqtgacha bizning hududimizda na diniy bayramlarga e'tibor bor edi, na milliy qadriyatlarimizni, bayramlarimizni nishonlashga sharoitlar yaratilmagan edi. Shu kundan buyon bu bayramlarga katta e'tibor qaratilib, xalqimizni quvonchiga quvonch qo'shib kelmoqda. Davlatimiz nafaqat diniy bayralarni nishonlashga sharoitlar yaratib bermoqda, balki shu qatorda dunyoviy bayramlarni ham katta tantanalar bilan o'tkazishga sharoitlarni yaratib bermoqda. Buning uchun biz prezidentimizga katta tashakkur aytishimiz kerak.

Diniy tashkilot – bu ma'lum dinga ishonuvchilar va ularning jamoalarining uyushmasidir (masjid, cherkov, sinagoga, diniy o'quv yurtlari va h.k.). Uni tashkil etish uchun unga bir xil e'tiqodga ega bo'lgan kamida 100 kishi a'zo bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining har qanday fuqarosi 18 yoshga to'lganidan keyin ma'lum diniy jamiyatga a'zo bo'lishi mumkin.

Diniy tashkilotlar o'z mulklariga ega bo'ladilar. Binolar, din bilan bog'liq buyumlar, ishlab chiqarish va xayriya ishlariga mo'ljallangan inshootlar, pul mablag'lari hamda diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa mol-mulk diniy tashkilotlarning mulki hisoblanadi. Diniy tashkilotlarga tushadigan moliyaviy va mulkiy xayriyalardan, shuningdek, fuqarolardan tushgan mablag'lardan davlat solig'i undirilmaydi.

Diniy tashkilot - diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga kumaklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy teng huquqli va o'z-o'zini boshkaruvchi uyushma. Ayni vaqtda u fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan hisoblanadi

Bugun respublikada 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2238 ta diniy tashkilot, 130 dan ortiq millat vakillarini o'zida jamlagan 140 ga yaqin milliy-madaniy markaz, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda. Ularda talabalar diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni olish imkoniyatiga ham ega.

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lishiga qaramay diniy qadriyatlarni hurmat qilishi, barcha dinlarni hurmat qilishi, e'tiqodlari uchun sharoitlarni yaratib kelayotganligi bu barchada birdek xushkayfiyatlilik ruhini bardavom bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Bu esa bevosita xalqlarning davlat siyosatidan rozi ekanligini bildiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, diniy va dunyoviy bilimlar qushning ikki qanoti singari. Qush uchishi uchun ikki qanot qanchalar zarur bo'lsa, insonga ham dunyo va din bilimlaridan xabardor bo'lish shunchalar zarurdir. Dunyoviy

qonunlarni, islom ulamolari quyidagicha umumlashtiradilar: “Zamonaviy jamiyatiga muvofiq chiqarilgan qonunlar shariatga zid kelmasa, unday qonunlar shariatdandir”!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси.2005 й. 15-бет.
2. <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi.
4. Qur`oni Karim Baqara surasi 256-oyat.
5. Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. “Тошкент ислом университети” нашриёт- матбаа бирлашмаси.2005 й. 15-бет.
6. <https://daryo.uz/2015/11/17/ozbekistonda-2238-ta-diniy-tashkilot-faoliyat-yuritadi>
10. Xatamova, D. M. (2023). O‘RIKNING DORIVORLIK HUSUSIYATI HAQIDA. *IJODKOR O‘QITUVCHI*, 3(31), 223-225.
11. Xatamova, D. M. (2023). O‘RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA ISHLATILISHI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(12), 498-501.
12. Xatamova, D. M., & Nosirov, Z. (2023). KAROTIN SAQLOVCHI MAHSULOTLAR VA ULARNING FOYDALARI HAQIDA. *Scientific Impulse*, 1(10), 2111-2113.
13. Xatamova, D. M., & Nosirov, Z. M. (2023). O‘RIK-DORIVOR NE‘MAT. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 812-817